



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Ahmadova Zebiniso Shavkatovna

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti

Annatatsiya: *Har bir davrda barcha rivojlangan davlat va jamiyatlar o‘zlar uchun muhim bo‘lgan yo‘nalishlarda ma’lum bir maqsadlarga eltuvchi strategiyani ishlab chiqadi. Misol uchun, dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lgan Germaniyaning ham o‘z taraqqiyot strategiyasi mavjud. 2015- yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2030-yil kun tartibini qabul qilib, 17 ta Global Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG)ni e’lon qilgan bir paytda, Germaniya 13 yil oldin ilgari surgan Milliy barqaror rivojlanish strategiyasiga ega edi. U 2018 yilda qayta yangilandi.*

Kalit so‘zlar: *Davlat, tahlil, Harakatlar strategiyasi, davr, fuqaro, Xalq, davlat, Taraqqiyot strategiyasi.*

Shuningdek, bundan besh yil oldin O‘zbekiston ham o‘z rivojlanish tarixida yangi bir davrga qadam qo‘ydi. Ushbu davrda boshlangan islohotlarni amalga oshirish uchun esa xalqimiz bilan bamaslahat tarzda ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi hayotga tatbiq etildi. O‘tgan davr mobaynida ushbu Strategiya asosida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Quvonarlisi, qisqa vaqt ichida Harakatlar strategiyasida ko‘zlangan maqsad va vazifalarga tahlil va raqamlar asosida emas, O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z turmush tarzida his qilgan o‘zgarishlar orqali to‘laqoni erishildi.

Ayni vaqtda ushbu yo‘nalishlarda boshlangan islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Jumladan, yangi muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylangan Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlagan demokratik islohotlar yo‘lini yanada qat’iy davom ettirishga qaratilgan, asosiy maqsadi “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bo‘lgan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosidagi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi e’lon qilindi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasining uzviy davomi bo‘lib, bugungi global o‘zgarishlar, aholi turmush tarzi, hayot talabi va qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda, yettita yo‘nalishda belgilab olindi. Shuningdek, ushbu strategiyadagi har bir vazifa va maqsadlar joriy yilda bo‘lib o‘tgan saylov jarayonlarida bevosita fuqarolarimiz ishtirokida muhokamadan o‘tkazilib, hayotiy taklif va tashabbuslar bilan to‘ldirildi.

Xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishi – erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadr-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi pog‘onaga ko‘tarish borasidagi vazifalar, bevosita Harakatlar strategiyasining birinchi yo‘nalishi doirasida – Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish borasida o‘tgan





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



besh yil mobaynida amalga oshirilgan ishlarning uzviy davomi bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Zero, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishida belgilab berilgan vazifalarning hayotimizga tatbiq etilishi orqali millati, tili va dinidan qat’i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilib, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyil to‘laqonli ro‘ybga chiqariladi.

Jumladan, bunda mahalliy boshqaruв organlarining joylarda muammolarni hal etishdagi roli va mas’uliyati yanada kuchaytiriladi. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismini markazdan hududlarga o‘tkazish nazarda tutilmoxda. Bu esa o‘tgan besh yil mobaynida “Xalq davlat idoralari emas, Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan ezgu tamoyil asosida boshlangan demokratik o‘zgarishlar samarasini xalqimiz yanada tezroq o‘z hayotida his qilishi imkonini beradi. Sababi, endilikda har bir maqsad va vazifani amalga oshirishda o‘tgan davrda erishilgan yutuqlar bilan birga, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklardan to‘g‘ri xulosa chiqariladi. Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida xalq bilan muloqot qilishda jamiyat boshqaruving tayanch bo‘g‘ini bo‘lgan, islohotlar samarasini bevosita aks etadigan mahalla tizimida har bir fuqaro murojaatlari bilan ishslashning “mahallabay”, “xonadonbay” kabi mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etildi. Endilikda esa ushbu ishlar yanada takomillashtirilib, har bir mahallani hokimliklar bilan bog‘lash maqsadida mahallalarda hokim yordamchisi lavozimi joriy etilmoxda. Bu esa, davlat rahbari ta’kidlaganidek, joylarda rahbarlar faqt davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilishiga erishishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Natijada, mahallada aholi bilan ishslash mexanizmlari takomillashadi. Hokim yordamchisi mahalla aholisi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishga mas’ul bo‘lsa, mahalla raisi esa ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish, oila va mahallada sog‘lom muhitni shakllantirishga javobgar etib belgilanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston aholisining oltmish foizdan ortig‘ini tashkil etuvchi yoshlarning ham katta hayotga qadam qo‘yadigan ilk maskani bu mahalla ekanligi hisobga olinib, mahallalarda yoshlar masalalari bilan muntazam shug‘ullanadigan Yoshlar ishlari agentligining vakili shtati ham tashkil etiladi. Bundan tashqari, hokimliklar va mahallalarning moliyaviy imkoniyatini kengaytirish maqsadida tuman byudjeti qo‘sishicha manbalar bilan ta’milanib, mahallalarning alohida jamg‘armasi shakllantiriladi.

Navbatdagi muhim vazifa sifatida esa markaziy idoralarni transformatsiya qilish, fuqarolarga xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruв tizimini yaratish vazifasi qo‘yilmoqda. Buning uchun, eng avvalo, vazirlik va idoralarni tashkil etish va tugatishning tartibi, ularni bir-biridan farqlab turadigan mezonlar, tarkibiy tuzilma va shtatlarni belgilashga oid aniq talablar ishlab chiqiladi. Shu asosda bir xil yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtiriladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Markaziy idoralarning hududiy tuzilmalar bilan ishslash jarayoniga yangicha yondashuvlar joriy etilib, eskirgan byurokratik usullardan voz kechiladi. Bunda hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tezkorlik bilan mustaqil hal etish bo‘yicha vazirlik va idoralarning vakolatlari yanada kengaytiriladi.

Har bir tarmoq va hudud bo‘yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birga, fuqarolar murojaatlari bilan ishslash maqsadida 2017- yilda tashkil etilgan Xalq qabulxonalari faoliyati takomillashtirilib, tom ma’noda xalq ovozini, jamoatchilik fikrini ifoda etadigan tuzilmaga aylanishi uchun qo‘sishimcha huquqiy asoslar yaratiladi.

Barchaga ma’lumki, Harakatlar strategiyasi doirasida Davlat boshqaruvida kadrlarni tayyorlash va qabul qilishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, 2019- yil 3-oktyabrdagi Prezident qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil qilingan edi. O‘tgan vaqt davomida Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlari yagona ochiq portali – vacancy.argos.uz orqali ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ushbu yo‘nalishda boshlangan islohotlarni ham izchil davom ettirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish jarayoniga yangicha, zamonaviy yondashuvlar joriy etish, kadrlarning davlat xizmatiga tanlov asosida qabul qilinishini yanada takomillashtirish, ular uchun uzlusiz malaka oshirish, natijadorlikni baholash va lavozim bo‘yicha ko‘tarilish mezonlarini belgilash kabilar shular jumlasidandir.

O‘tgan besh yillikda Harakatlar strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda xalq hokimiyatchiligi mexanizmlarini kuchaytirish, davlat hokimiyati tarmoqlari mustaqilligini ta’minlash va parlamentning rolini yanada oshirish borasida qilingan ishlar o‘z samarasini ko‘rsatdi. Shu boisdan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda ham xalq vakillari bo‘lgan senator va deputatlar alohida muhim o‘rin tutadi.

Xususan, Oliy Majlis faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqimiz kutayotgan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini tezlashtirishga xizmat qiladigan qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish, qonun ijodkorligi faoliyatini demokratlashtirish va ularning ijrosini ta’minlashga qaratilgan parlament nazoratini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Bu borada parlament tomonidan mamlakatimiz bo‘yicha murojaatlar bilan ishslash holati nazoratga olinib, joylardagi ijro idorasi rahbarlari hisobotini eshitish va natijaga muvofiq, ularga nisbatan ta’sirchan choralar ko‘rish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Yana bir muhim masala – Xalq deputatlari mahalliy kengashlari hamda hokimlarning vakolatlarini aniq belgilashga oid qonuniy asoslar shakllantiriladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirot etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirishga ham ustuvor vazifa sifatida qaraladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruvi va ijtimoiy loyihalarni hayotga tatbiq etishda fuqarolik jamiyatni institutlari ishtirokini kuchaytirishga doir dolzorb vazifalar amalga oshiriladi.

Mamlakatda demokratik yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish uchun so‘z va matbuot erkinligini, fuqarolarning axborot olish hamda uni tarqatish, o‘z fikru qarashlarini erkin bildirish huquqini ta‘minlash borasida muhim chora-tadbirlar hayotga keng joriy etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ushbu yo‘nalishida belgilab berilgan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish, jamiyat va davlat boshqaruvining har bir nuqtasida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash va davlat idoralarini, tom ma’noda, xalqqa xizmat qiladigan maskanga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017-yil 14-yanvar. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.-104 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlami izchil davom ettirish, halqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish - barqaror taraqqiyot kafolatidir. O‘zbekiston Liberal- demokratik partiyasining VIII s‘ezdidagi ma‘ruzasi. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining rasmiy sayti.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruzasi. Xalq so‘zi, 2016-yil 8-dekabr.